
Yoshlar giyohvandlik vositalariga qarshi

“Yoshlar orasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning tarqalishini oldini olish” kompleks tezkor-profilaktik tadbiri doirasida O‘zbekiston tumanidagi yoshlar vakillari bilan turkum uchrashuv-muloqotlar tashkillanmoqda.

Ana shu mavzudagi targ‘ibot tadbiri Qirqketmon mahallasidagi 16-umumta‘lim maktabida ham bo‘lib o‘tdi.

Tuman hokimining o‘rinbosari Muslimbek Ahmedov boshchiligidagi daxldor mutasaddilar ishtirok etgan uchrashuvda o‘quvchilarga giyohvand moddalarning inson sog‘lig‘i va taqdiriga zarari to‘g‘risida keng tushuntirishlar berilib, mavzuga oid videorolik namoyish etildi. Shuningdek, yoshlar bilan buzg‘unchi g‘oyalar ta‘siridan saqlanish, jaholatga qarshi ma‘rifat yo‘nalishlarida ham suhbatlar o‘tkazildi.

2025-02-12 09:39:09